



XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 20 - iyul

VI-60-119-7-94-K/22

Jomboy tumani hokimligi

2022-yil 2-chorakda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar va bajarilgan ishlar yuzasidan tuman ishchi guruhining hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprelda “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi “Mahalliy budget mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minalash to‘g‘risida”gi KQ-213-IV-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil “Ochiq budget” axborot portaliga orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-5250-sonli qarorining ijrosini ta’minalash maqsadida, tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri Burxanov G‘ofur Baxodirovichning hisoboti inobatga olib “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi VI–chaqiriq XL-sessiyasi

1. Tuman ishchi guruhining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar va bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tashabbusli budgetlashtirish bo‘yicha ma’lumotlar 2-3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirilishi yuzasidan ma’lumot 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan

mablag‘lar yuzasidan ma’lumot 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman hokimligi moliya bo‘limining 2022-yil iyul-avgust oylarida bo‘lib o‘tadigan “Ochiq budjet” jarayonida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdori bo‘yicha taklifi ma’qullansin va 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (O.Odilov), tuman “Jomboy tongi” gazetasi tahririysi (I.Po‘latov)ga tuman ishchi guruhi hisobotidan keng jamoatchilikni xabardor etish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Kengashining Mahalliy budgetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Baxodirov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Majidov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



Q.Sobirov

Xalq deputatlari Jomboy tuman
Kengashining
2022 yil 20 iyuldag'i
VI-60-119-7-94-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman ishchi guruhining 2022-yil 1-yarimlikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar va bajarilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-son qarori hamda va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi "Mahalliy budjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-213-IV-son qarorlari asosida "Ochiq budjet" axborot portalida "Tashabbusli budjet" jarayonlari o'tkazib kelinmoqda.

"Ochiq budjet" portalining tashkil etilishidan maqsad bevosita fuqarolar tashabbus va talablarini inobatga olgan holda hududlardagi kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat.

Fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflarni amalga oshirish uchun tuman hokimligida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisobvarag'i shakllantirildi. Ushbu jamg'armaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qaroriga asosan 2022-yil

1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag'larining 30 foizi 940,0 mln.so'm, tuman budgetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 2,5 foizi 3567,4 mln.so'm Xalq deputatlari tuman Kengashining qarorlariga asosan o'tkazilishi ta'minlandi. Jamg'armada 2022-yil boshida 263,1 mln.so'm qoldiq mablag'i mavjud bo'lib,

2021-yilda g'olib bo'lgan takliflarni amalga oshirishda 3,5 mln.so'm mablag'lar iqtisod qilinib, jamg'armadan 1-mavsumda fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflarni amalga oshirish uchun jami 4774,1 mln.so'm mablag'lar yo'naltirildi.

"Ochiq budjet" axborot portali 3 bosqichda amalga oshirildi:

1-bosqich. Fuqarolar tomonidan "Ochiq budjet" axborot portaliga loyiha takliflari joylashtirildi. Bu jarayon joriy yilning 1-fevraldan 22-fevralgacha davom etdi. Fuqarolar tomonidan shu vaqt oralig'ida 226 ta takliflar kelib tushdi.

2-bosqich. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi "Mahalliy budjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-213-IV-son qarori va bu boradagi Xalq deputatlari

tuman Kengashining 2021-yil 9-vgustdagи “Mahalliy budget mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida”gi VI-34-16-7-94-K/21-sonli qarori bilan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh fuqarolar tomonidan “Ochiq budget” axborot portaliga joylashtirilgan loyihalarni mezon me’yorlariga asosan tanlab olishdi. Jarayon joriy yilning 23-fevralidan 4-martgacha davom etdi. Bunda ishchi guruh tomonidan takliflarning mezonga mosligi va taklif loyihalarining so‘mmasiga aniqlik kiritildi. Ushbu jarayonda ishchi guruh tomonidan qiymati 30,4 mlrd so‘mlik 67 ta takliflar ovoz berish uchun yakuniy bosqichga o‘tkazildi va taklif mualliflarining shaxsiy kabinetiga takliflari ovoz berish uchun qabul qilinganliga to‘g‘risida xabarnomalar yuborildi. Qolgan 159 ta taklif mezon talablariga to‘g‘ri kelmaganligi va bir-birini takrorlaganligi hamda taklifning amalga oshirish qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 ming barobaridan oshganligi sababli rad javobi berildi va taklif bergen fuqarolarning shaxsiy kabinetiga rad etishning sabablari to‘g‘risida xabarnomalar yuborildi.

3-bosqich. Ishchi guruh tomonidan mezon me’yorlariga asosan tanlab olingan loyihalar “Ochiq budget” axborot portaliga ovoz berish uchun joylashtirildi. Jarayon joriy yilning 5-martdan 4-aprelgacha davom etdi. Bu jarayonda 24338 ta (jami aholi soniga nisbatan 13,5 foiz) ovoz berildi.

Yakuniy xulosa ovozlar soniga ko‘ra, yuqorida pastga tamoyili asosida shuningdek, “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasida shakllangan mablag‘lar hajmidan kelib chiqib aniqlandi. Bunda amalga oshirish qiymati 4508 mln.so‘mni tashkil etgan 6 ta loyihalar (11561 ta ovoz to‘plagan holda) g‘olib deb topildi. Ya’ni,

“Tuman tibbiyat birlashmasini 15 ta EKG va 1 ta EXO KG va boshqa zarur tibbiyat jihozlar bilan ta’minlash” taklifi 3365 ta ovoz bilan 1-o‘rinni;

“Jomboy tuman markazida zamonaviy kutubxona qurish” taklifi 2190 ta ovoz bilan 2-o‘rinni;

“Tuman xalq ta’lim bo‘limiga qarashli 28-umumta’lim mакtabiga filial qurish” taklifi 1574 ta ovoz bilan 3-o‘rinni;

“Juriyat” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi 4 ta trasformatorni yuqori kuchlanishdagi trasformatorlarga almashtirish” taklifi 1486 ta ovoz bilan 4-o‘rinni;

“Xalq ta’lim bo‘limiga qarashli 20-umumta’lim maktabiga filial qurish” taklifi 1481 ta ovoz bilan 5-o‘rinni;

“Xolvoysi mahalla fuqarolar yig‘ini binosi va guzari qurish” taklifi 1465 ta ovoz bilan 6-o‘rinni qayd etdi.

G‘olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirish yuzasidan buyurtmachi tashkilotlarni aniqlash bo‘yicha manzilli ro‘yxat shakllantirilib, xalq Deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 28-apreldagi VI-55-77-7-94-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlandi. Har bir loyiha uchun buyurtmachi tashkilotlarga “401722...” mablag‘lar manbasi bilan alohida hisobvaraqlar ochgan holda mablag‘lar o‘tkazib berildi va axborot portalida “g‘olib” deb topilmagan boshqa loyihalar moliyalashtirilishiga yo‘l qo‘yilmadi.

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 28-apreldagi VI-55-77-7-94-K/22-sonli qarori bilan “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasida shakllangan mablag‘lar hisobidan,

1-o‘rinni egallagan “Tuman tibbiyat birlashmasini 15 ta EKG va 1 ta EXO KG va boshqa zarur tibbiyat jixozlar bilan ta’minlash” taklifini amalga oshirish uchun 942,0 mln.so‘m;

2-o‘rinni egallagan “Jomboy tuman markazida zamonaviy kutubxona qurish” taklifiga 1000,0 mln.so‘m;

3-o‘rinni egallagan “Tuman xalq ta’lim bo‘limiga qarashli 28-umumta’lim maktabiga filial qurish” taklifiga 620,0 mln.so‘m;

4-o‘rinni egallagan “Juriyat” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi 4 ta trasformatorlarni yuqori kuchlanishdagi trasformatorlarga almashtirish” taklifiga 322,0 mln.so‘m;

5-o‘rinni egallagan “Xalq ta’lim bo‘limiga qarashli 20-umumta’lim maktabiga filial qurish” taklifiga 974,0 mln.so‘m;

6-o‘rinni egallagan “Xolvoyi” mahalla fuqarolar yig‘ini binosi va guzari qurish” taklifiga 650,0 mln.so‘m, jami 4508,0 mln.so‘m mablag‘lar ajratildi.

Bugungi kunda ushbu g‘olib deb topilgan takliflarni amalga oshirish “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshirilmoqda. Jumladan,

1-o‘rinni egallagan “Tuman tibbiyat birlashmasini 15 ta EKG va 1 ta EXO KG va boshqa zarur tibbiyat jixozlar bilan ta’minlash” taklifi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi davlat xaridlari axborot portali orqali o‘tkazilgan auksionda “ZUNNUN” MCHJ tomonidan 15 ta, qiymati 95,6 mln.so‘mlik EKG tibbiyat jihozlari, “EDAN-MED-SERVIS” MCHJ tomonidan 141,6 mln.so‘mlik 1 dona “o‘pkani sun’iy shamollatish apparati”, 43,5 mln.so‘mlik 8 dona “kardio monitor” hamda 282,9 mln.so‘mlik 1 dona “exoimpuls skanir apparati” yetkazib berildi.

Bundan tashqari, 378,4 mln.so‘mlik boshqa jihozlar xaridi bo‘yicha auksion savdolari o‘tkazilmoqda.

2-o‘rinni egallagan “Jomboy tuman markazida zamonaviy kutubxona qurish” taklifini amalga oshirish uchun bugungi kunda loyiha-smeta hujjatlari shakllantirilmoqda.

3-o‘rinni egallagan “Tuman xalq ta’lim bo‘limiga qarashli 28-umumta’lim maktabiga filial qurish” taklifini amalga oshirish uchun bugungi kunda loyiha-smeta hujjatlari shakllantirildi. Pudratchi korxonani aniqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat xaridlari axborot portali orqali o‘tkazilgan tendirda “STRIVING FOR THE FUTURE” MCHJ g‘olib chiqdi. Bugungi kunda ushbu MCHJ o‘rtasida loyihani amalga oshirish yuzasidan shartnomalar tuzilib loyihani amalga oshirish ishlari boshlab yuborildi.

4-o‘rinni egallagan “Juriyat” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi 4 traformatorlarni yuqori kuchlanishdagi traformatorlarga almashtirish” taklifi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi davlat xaridlari axborot portali orqali o‘tkazilgan auksionda “UNIQUEAGE” MCHJ g‘olib deb topilib, 231,6 mln.so‘mlik 4 dona yuqori kuchlanishdagi traformatorlar yetkazib berildi. Bugungi kunda traformatorlarni o‘rnatish ishlari olib borilmoqda.

5-o‘rinni egallagan “Xalq ta’lim bo‘limiga qarashli 20-umumta’lim maktabiga filial qurish” taklifini amalga oshirish uchun bugungi kunda loyiha-smeta hujjatlari shakllantirilmoqda.

6-o‘rinni egallagan “Xolvoysi” mahalla fuqarolar yig‘ini binosi va guzari qurish” taklifini amalga oshirish uchun loyiha-smeta hujjatlari shakllantirildi. Pudratchi korxonani aniqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat xaridlari axborot portali orqali o‘tkazilgan tendirda “Bulung‘ur dobil quruvchi” xususiy korxonasi g‘olib chiqdi. Bugungi kunda ushbu korxona o‘rtasida loyihani amalga oshirish yuzasidan shartnomalar tuzilib loyihani amalga oshirish ishlari boshlab yuborildi.

Ushbu jarayonlarning barcha bosqichlari jamoatchilik hamda loyiha tashabbuskorlari ishtirokida o‘tkazilishini ta’minalash hamda loyihada ko‘zda tutilgan tadbirlarni sifatli tarzda amalga oshirilishi (tovar yoki xizmatlarni xarid qilinishi) hamda bajarilgan ishlarni loyiha tashabbuskorlari ishtirokida qabul qilib olinishini ta’minalash bo‘yicha tizimli nazorat o‘rnatilgan.

Shuningdek, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “Tashabbusli budget” loyihasiga alohida e’tibor qaratilganligini inobatga olib, ushbu jarayonlarni shaffof tarzda o‘tkazilishini, g‘olib

deb topilgan loyihalarni qisqa muddatlarda hamda sifatli amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha tizimli choralar ko'rilmoxda.

Tashabbusli budgetlashtirish jarayonini amalga oshirish mexanizmi va uning mohiyatini aholi o'rtasida tizimli ravishda keng yoritib borilishini ta'minlash maqsadida tuman hokimligi moliya bo'limi tomonidan tuman hokimligining rasmiy veb-saytida o'ndan ortiq maqola va video ro'liklar joylashtirildi hamda "Jomboy tongi" gazetasiga 3 marotaba maqola chop etildi va bir marotaba kun.uz ijtimoiy tarmog'iga g'olib takliflar yoritilishi ta'minlandi.

Xalq deputatlari Jomboy tuman
Kengashining
2022 yil 20 iyuldag'i
VI-60-119-7-94-K/22-son qaroriga
2-ilova

“Budjet jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida
rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni joylashtirish
tartibi to‘g‘risida”gi nizomga 16-ilova

Tashabbusli budjetlashtirish bo‘yicha

MA’LUMOT

T/R	Ko‘rsatkich nomi	Summa (ming so‘m)
1	Yil boshiga qoldiq	263100
2	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga o‘tkazilgan mablag‘lar*	8544770
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) Tadbirlarni moliyalashtirish uchun yunaltirilgan mablag‘lar**	4508000
3.1	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to‘langan mablag‘lar	1367831
3.2	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to‘lab berilmagan qoldiq mablag‘lar	3558,7
4	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidagi qoldiq mablag‘lar	4303428,7

Xalq deputatlari Jomboy tuman
Kengashining
2022 yil 20 iyuldag'i
VI-60-119-7-94-K/22-son qaroriga
3-ilova

“Budget jarayonining ochiqligini ta'minlash
maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni
joylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga 16-ilova

Tashabbusli budgetlashtirish bo'yicha

MA'LUMOT

T/R	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	Ko'rsatkichlar		
			O'Ichov birligi	Miqdori	Sarflangan mablag'lar (ming.so'm)
1	Hududiy ichki yo'llar		umumiy uzunligi (km)		
2	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	2	soni	2	
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	soni	1	
5	Boshqa ijtimoiy muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash		umumiy uzunligi (km)		
7	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish		chiroqlar soni		
8	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish		tadbirlar soni		
9	Boshqa tadbirlar	3	soni	3	
Jami		6	X	X	0,0

Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashining
 2022 yil 20 iyuldag'i
 VI-60-119-7-94-K/22-son qaroriga
 4-ilova
 Tashabbusli budgetlashtirish natijalari
 bo'yicha ma'lumotga 1-ilova

“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larini shakllantirilishi yuzasidan

MA’LUMOT

T/R	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larini shakllantirish manbalari	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirilishi lozim bo‘lgan mablag‘lar (ming so‘m)				“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga haqiqatda o‘tkazilgan mablag‘lar	Farqi	Izoh
		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak			
1	Tuman budgetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag‘lar	3567450,0	3572920,0			7140370,0	0,0	
2	O‘zbekiston Respublikasi budgetidan ajratilgan mablag‘lar (PQ-5250)						0,0	
3	Tuman budgetining qo‘srimcha manbalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag‘lar	940000,0	464400,0			1404400,0	0,0	

3.1	erkin qoldiq mablag‘lari	940000,0			940000,0	0,0	
3.2	daromadlarning xisobot choraklari yakunlari bo‘yicha aniqlanadigan pragnozdan oshirib bajarilgan qismi		464400,0		464400,0	0,0	
3.3	davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar				0,0	0,0	
4.4	elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag‘lar				0,0	0,0	
3.5	budjetdan ajratiladigan mablag‘lar kamaytirilishi natijasida bo‘shab qolgan mablag‘lar				0,0	0,0	
4	Jami ajratiladigan mablag‘lar	4507450,0	4037320		8544770,0	0,0	

Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashining
 2022 yil 20 iyuldag'i
 VI-60-119-7-94-K/22-son qaroriga
 5-ilova
 Tashabbusli budgetlashtirish natijalari
 bo'yicha ma'lumotga 1-ilova

**Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun
 yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan MA'LUMOT**

T/R	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami to'plangan ovozlar	Shundan		Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so'm)					
			onlayn ovozlar	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan xisobvaraq	Tadbir-ning fuqaro tomoni-dan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati*	Ajratilgan mablag'lar	Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar	Qoldiq mablag'lar
1	1010400015	3365	3	3362	Tuman Tibbiyot birlashmasini 15 ta EKG va 1 ta EXO KG va boshqa zarur tibbiyot jixozlari bilan ta'minlash.	401722860182097073101054001	350 000	942000	942000	905303	36697
2	1010400011	2190	29	2161	Jomboy tuman markazida zamonaviy kutubxona qurish.	401722860182097011209018002	1 000 000	1000000	1000000	0,0	1000000
3	1010400016	1574	48	1526	Tuman xalq ta'lim bo'limiga qarashli 28-son umumta'lim məktəbiga filial qurish.	401722860182097092100075003	620 000	620000	620000	183000	437000

4	1010400007	1486	5	1481	Jomboy tuman Juriyat MFYdagi 4 ta trasformatorni yuqori kuchlanishdagi trasformatorga almashtirish kerak.	401722860182097011209018003	215 000	322000	322000	231600	90400
5	1010400215	1481	25	1456	Jomboy tuman Xalq ta'lim bo'limiga qarashli 20-son umumta'lim maktabiga filial qurish.	401722860182097092100075004	1 000 000	974000	974000	0,0	974000
6	1010400026	1465	7	1458	Xolvoysi mahallasiga mahalla binosi va mahalla guzari qurish.	401722860182097011209018004	650 000	650000	650000	47928	602072
Jami		11571	117	11444	X	X	3835000	4508000	4508000	1367831	3140169

Xalq deputatlari Jomboy tuman
 Kengashining
 2022 yil 20 iyuldag'i
 VI-60-119-7-94-K/22-son qaroriga
 6-ilova

**Tuman hokimligi moliya bo'limining 2022-yil iyul-avgust oylarida bo'lib
 o'tadigan "Ochiq budjet" jarayonida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"
 shaxsiy g'azna hisobvarag'iga yo'naltiriladigan mablag'lar miqdori bo'yicha
 taklifi**

T/R	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'larini shakllantirish manbalari	Summa (ming so'm)
1	Yil boshiga qoldiq (2-mavsum boshiga)	730508,0
2	Tuman budgetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	3572920,0
3	2022-yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	
4	Bajarilgan ishlardan iqtisod qilingan mablag'lar	
Jami		4303428,0